




Internet jurnalistikaning veb-saytlardagi vizual ko'rsatkichlari

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlari faqtina bosma nashrlar, TV va radio ixtisosligi bo'yichagini emas, balki internet ommaviy axborot vositalari ijodkorlari sifatida ham faoliyat yuritmoqdalar. An'anaviy ommaviy axborot vositalari (matbuot, TV va radio)dan farqli ravishda, internet veb-saytlarda faoliyat yuritish ijodkorlardan yanada yuqori darajadagi matornatni talab etadi.

Internet jurnalistikaning veb-saytni tashkil qilishda ayrim qoidalarga rioya etish sahifa muvaffaqiyatining garovidir. Ular bevosita saytning tashkilotiga bog'liq. Veb-sahifaga tashrif buyurgan har bir

foydaluvchini tomonidan uni baholashda bir necha jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni veb-saytni baholashning birlamchi ko'rsatkichlari deb belgilash mumkin. Nega birlamchi? Sababi aynan birlamchi ko'rsatkichlar sayt ekranda paydo bo'lishi bilan o'quvchida taassurot uyg'otadi, uni internetdan joy olgan mana shu saytda 1-2 daqiqadan ko'proq qolishini ta'minlaydi.

Vizual ko'rsatkichlar. Vizual ko'rsatkichlar deganda, bevosita internet nashrning umumiy ko'rinishi nazarda tutiladi. Bular veb-sahifa dizayni va vyorstkasidir. Ko'p hollarda veb-sahifa egalari dizayn ko'rinishiga katta e'tibor qaratib, saytning Internetdagi man-



zilini belgilashni oxirgi o'rninga qo'yadi. Shoshilinchda belgilangan, juda uzun va noaniq manzillar keyinchalik o'z xatosini ko'rsatadi, saytni ommalashtirish va uni eslab qolishda pand beradi.

Eslab qolish uchun qulay va tahririyat nomiga mos bo'lgan manzillarga misol: www.mohiyat.uz, www.gazeta.uz, www.region.uz. qisman noto'g'ri tanlangan veb-manzillar: www.fermervatomorkachi.uz, www.buhorookshomi.uz, www.vabkenthaeti.uz.

Dizayn asosan texnik xodimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Ammo dizayn ustida ish olib borish jarayonida tahririyat ijodiy xodimlarining ishtiroti doimiy bo'lishi kerak. Texnik xodimga topshiriq berishdan avval tahririyatda veb-sayt qanday ko'rinishda yaratilsa, nashrning xususiyatiga to'g'ri kelishi, veb-saytning maqsad va vazifalari nimadan iborat bo'lishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim. Buning uchun sayt tashkil etishdan avval internetda mavjud, dizayn va vyorstka jihatdan ma'qul bo'lgan saytlarni tanlab olish va ularni texnik xodimga ko'rsatish kerak.

Bu unga ish boshlashdan avval to'g'ri yo'naliш belgilashga yordam beradi. Saytni ishlab chiquvchi o'z navbatida, ularni o'rganib chiqib, har birining xususiyati, dasturiy tuzilishi, amalga oshirilish imkoniyati, ish hajmini va xarajatini belgilaydi. So'ng kelishilgan holda (ko'p hollarda administratorning o'zi tomonidan) saytni yara-tish uchun «Texnik topshiriq» ishlab chiqiladi. Sahifadagi ranglarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ular tanlanganda ko'zni toliqtirmaydigan, ammo e'tiborni jaib etadigan bo'lishiga ahamiyat berish zarur. Saytning vyorstkasi o'quvchi uchun qulay va bir qarashda tushunarli bo'lishi, menyu, reklama, matn – barchasi o'z o'rniда, o'quvchi psixologiyasi inobatga olingan holda, tuzilishi muhim ahamiyatga egadir.

Information arxitektura — sayt tarkibiy tuzilishining mazmuni. Bu tushuncha biroz noaniqdek tuyulsada, veb-sahifaning muvaffaqiyatli yaratilishida muhim rol o'ynaydi. Informatsion arxi-

tekturnani yaratishda veb-nashrga qanday nom berilishi, menyularning joylashtirilishi va xususiyatlari, reklama maydonchasingin o'rni va hajmi, ruknlarning nomi va texnik jihatlari, qayta aloqa instrumentlarining maqsad va vazifalarini aniq belgilash kerak. Ish sayting «Texnik topshirig'i» ishlab chiqilayotgan paytdanoq, o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Negaki, har bir ta'kidlangan jihatga qo'yilajak maqsad va vazifalar texnik tomonidan ta'minlanib berilishi lozim. Veb-nashrning nomi sayt ochilgan vaqtida yuqori panelda paydo bo'ladi. U aniq va lo'nda ifodalanishi kerak. Ayrim yirik saytlar va portallarda har bir alohida sahifa uchun rukn nomini sarlavha sifatida berish amaliyoti qo'llaniladi.

Menyu — saytning rukn va tematik bo'limlari sarlavhasini ifodalovchi qism bo'lib hisoblanadi. Ular asosiy, korporativ va yordamchi menyularga bo'linadi. Asosiy menu sayting to'liq mazmunini aks ettiradi va mavzu yoki ruknlarga bo'linadi. Ko'p hollarda, o'ng yoki chap tomonda joylashtiriladi. Korporativ menu — tahririyatga tegishli ma'lumotlar haqida axborot beradi. U odatda yuqori yoki pastki qismda joylashtiriladi va «biz haqimizda», «obuna», «reklama», «qayta aloqa» kabi ma'lumotlarga yo'llanma beradi. Korporativ menu va urqali berilgan ma'lumotlar ruhiyati nashrning imijini shakkantiruvchi ko'rsatkichdir. Tahririyat to'g'risida ma'lumot berilganda, ijodiy xodimlar haqida alohida ma'lumot joylashtirish o'quvchilarining nashrga bo'lgan ishonchini orttiradi. Unutmang, internet nashr bu birinchi navbatda, interaktiv ommaviy axborot vositasidir. Shuningdek, bu yerda tahririyatning reklama siyosati aniq ko'rsatilishi kerak, ya'ni reklama berish imkoniyatlari, uning turlari va albatta reklama bo'limining aloqa telefonlari bo'lishi zarur.

Ruknlar — sayting mazmunini ifodalovchi muhim elementdir. Veb-sahifaning qanday mavzu va yo'naliшdagagi ma'lumotlarni yoritishga mo'ljallanganini aynan ruknlarni o'rganib chiqib, bilib

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari oyliklari oshiriladi
Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari oyliklari 1 dekabrdan 1.2 baravar, 2019 yil 1 apreldan 1.15 baravar oshiriladi.
Buxun, 09.23

Zoyir Mirzayev Sharif Rashidov tumani bolami boldi
Sabiq hosh vazir o'rinosbasi Zoyir Mirzayev Jizzax viloyatining Sharif Rashidov tumani hokimi bo'ldi
Bugun, 12:25

Andijonda o'z o'g'liga shari'y nikoh o'qigan ota jazoza tortildi
Andijon viloyatining Paxtakob tumanda yashovchisi fuqaro o'z o'g'iga shari'y nikoh o'qigani uchun javobgarikkha tortildi.
Ketma, 23:41

Chilm va «ye-sigaretalar» uchun janimlar misqdori taklif etidi
Taqilangan joyda chilm va «ye-sigaretalar» chekkarlik uchun janimlar misqdori taklif etidi.
Ketma, 23:42

LETIN YEVZUVIGA ASSOLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI HAQIDA ISHLI GURUHNING SO'NGGI XULOSASI E'LON QILINDI (2)
Toshkentdagi 236-maktab o'quvchilari tarix fani o'qituvchisiga yengil tan jarohati yetkazdi

HUKUMAT 2019 YILGI DAVLET BYUDGETI JOYHAISINI TASDIQLADI
O'zbekiston mudofaa vaziriga yangi o'rinosbasi tayinlandi

IVY AXBOROT MURAKKIJI TASHQARI
IVY axborot murakkobi tashqari, vazifalarning bir qismi prokuraturaiga berilidi

korzinka.uz ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПОЛЕЗНОЕ НОВОС

olish mumkin. Ruknlar bir-ikki so'z yoki so'z birikmasidan oshmasligi va materiallar mazmunini to'liq aks ettirishi lozim. Nomlar aniq ifodalanim, ortiqcha savol tug'dirmasligi zarur. Tanlangan so'z birikmalarining ifoda usuli tahririyat xususiyati va yo'nalishiga mos uslubda bo'lishi kerak.

Nasbrning mazmuni — kontent. Veb-sayt kontentini yaratishda aynan internet nashr uchun material tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor qaratilib, belgilangan mezonlar va tamoyil-larga asoslanish lozim. Bundan tashqari, saytga ma'lumot joylashtirishda quyidagi talablarni inobatga olmoq kerak:

- Internet sahifasidagi maqolalar tez ko'z yogurtirib, aniq tasavvur hosil qilishga moslashtirilgan holda;
- monitordan o'qish uchun mo'ljallangan uslubda;
- mantiqiy bo'laklari xatboshi bilan ajratilgan ko'rinishda bo'lishi lozim.

Maqolaning birinchi xatboshisi — kim, nima, qachon, qayerda, nima uchun savollariga javob berishi lozim. Har bir material uchun qisqa va aniq sarlavha tanlanishi va imkon qadar fotosuratlar berilishi ham maqsadga muvoqiq. Sahifada berilgan axborotlarga mos fotosuratlar nafaqat uning sifati, balki qimmatini ham oshiradi.

Foydalanishda qulayligi — navigatsiya — o'quvchiga taqdim etilayotgan ma'lumotni tez va oson topish imkonini berishni ko'zlaydi. Yaratilgan yo'llanmalar tizimining qanchalik qulay va mukammal o'ylangani ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida asosi, hal etuvchi mexanizmdir. Navigatsiya o'ta murakkab va chalkash bo'imasligi lozim. Oddiy yo'llanmalar orqali o'quvchi istagan maqola va ma'lumotga ega bo'lishiga imkoniyat yaratib berish kifoya. Ommaviy axborot vositalari veb-sayti uchun sahifada o'quvchiga batafsil

ma'lumot olish, «print versiya» imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni maqolani chop etishda qulaylik yaratish, matnga va arxivga kirish texnik jihatdan cheklanmasligi muhim bo'lgan jihatlar hisoblanadi. Veb-sahifa qulay interaktiv imkoniyatlarga egaligi uning muvafaqiyatini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari veb-saytida yana quyidagi e'tiborli jihatlar mayjud bo'lishi zarur:

So'rovlar — Internet formatidagi ommaviy axborot vositalari faoliyatida ma'lumot yig'ish, kichik statistikaga ega bo'lish, mavzuning dolzarbligini aniqlash uchun juda qulay vosita bo'lib hisoblanadi. So'rov shaklida berilgan muammoli savol, aniqlik talab etuvchi vaziyat olingan natijalarga ko'ra, tahlil etilishi va yangi muammolarni ko'tarish imkonini yaratishi mumkin. Ko'p hollarda ommaviy axborot vositalari veb-sahifalarida tashkil etilgan so'rovlar e'tiborsiz qoladi, vaholanki, ularning natijalarini tahlil qilish jurnalist uchun nafaqat yangi material ustida bosh qotirishga turtki bo'ladi, balki auditorianing keyingi ishtirotini ham faollashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Muallif bilan aloqa o'rnatish imkoniyati. Internet bu cheksiz ijodiy sarhadlarni ochib beruvchi makondir. Internet nashr uchun maqola tayyorlayotgan jurnalist auditoriya bilan interaktiv aloqa o'rnatish imkoniga ega bo'lsa, bu vosita unga yangi mavzularni topish, yoritilgan muammoning boshqa tomonini ko'rish, alternativ fikr va mulohazalar yig'ish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda jurnalistning o'z o'quvchilarini bilan ishslash yo'llari juda ko'p: maqola yakunida muallif elektron manziliga yo'llanma berish, yoritilgan masala yuzasidan o'quvchilarni forum orqali muhokamaga chorlash, tahririyat manziliga xat yuborish va boshqalarga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, internet nashrining umumiyligi ko'rinishi, ya'ni veb-sahifa dizayni va vyorstkasi qanchalik muvaffaqiyatlari bo'lsa, foydalanuvchilarni o'ziga shunchalik ko'proq jalb eta oladi.